



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-maxsus  
son (5-jild)

**2025**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

***Nº S/5 (5) - 2025***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

#### **12.00.00- YURIDIK FANLAR:**

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy

kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### **13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:**

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### **19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:**

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI  
5-jild, 5- maxsus son (Iyun, 2025). - 302 bet.

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Abdullaev Ulug'bek Saydanovich</i>	
O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR .....	10-14
<i>Shukurillayev Yunus Asrorovich</i>	
BUXORO AMIRLIGIDA CHEGARALARNI QO'RQLASH, QOROVULLIKNI O'TASH VA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MASALALARI T AHLILI .....	15-19
<i>Rahmankulova Adolat Xushbakovna</i>	
ИСТОРИЯ ГРЕЧЕСКОЙ ДИАСПОРЫ УЗБЕКИСТАНА: СПЕЦПЕРЕСЕЛЕНЦЫ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ЭМИГРАНТЫ .....	20-25
<i>Xusanov Xabibullo Xakimovich</i>	
O'ZBEKİSTON MILLATLARARO MUNOSABATLARIDAGI ZİDDİYATLI VAZİYAT VA MILLİY MADANIY MARKAZLARNING TASHKIL QILINISHI VA UNİNG TARİХİY AHAMIYATI .....	26-30
<i>Toshov Kamoliddin, Xurramova Sabrina Abdurashidovna</i>	
THE PROBLEM OF CHILD NEGLECT DURING THE SECOND WORLD WAR .....	31-38
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i>	
THE FORMATION OF THE PRESS OF THE KhPSR AND THE ESSENCE OF SOCIAL PROBLEMS IN IT.....	39-42
<i>Nazirov Baxtiyor, Mo'minov Nodirbek Botir o'g'li</i>	
IMOMQULIXON DAVRI ASHTARXONIYLAR DAVLATINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA HARBIY-SIYOSIY HAYOTI .....	43-48

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>İslamutdinov Vadim</i>	
СОСТОЯНИЕ И НАПРАВЛЕНИЯ СНИЖЕНИЯ БЕДНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	49-54
<i>Melibaeva Gulxon Nazrullayevna</i>	
BENCHMARKING KICHIK INNOVATSION BIZNESNING RAQOBATBARDOSHligini OSHIRISHDA SAMARALI VOSITASI SIFATIDA.....	55-65
<i>Ульмас Ибрагимов</i>	
ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОЙ МОДЕЛИ МАЛОГО БИЗНЕСА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	66-75

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

<i>Salomova Hakima Yusupovna</i>	
ME'YOR KATEGORIYASINING BIOSFERANI ASRASHDAGI AMALIY AHAMIYATI .....	76-83
<i>Djumaniyozova Dilfuza, Ibraximova Dilorom</i>	
YURIDIК TA'LIM VA YURIDIК KLINIKA FAOLIYATIDA AXLOQIY TARBIYA.....	84-90
<i>Djo'raev Anvar Muxamadiyevich</i>	
IJTIMOIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI .....	91-96

<i>Каримова Гулчехра Самадовна</i>	
ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАДЕРЖКИ ПОЛОВОГО РАЗВИТИЯ У ПОДРОСТКОВ: МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ СИНТЕЗ МЕДИЦИНСКИХ ДАННЫХ И АНТРОПОЛОГО- ЭТИЧЕСКИХ.....	97-101
<i>Гайбуллаев Жавлон Шавкатович</i>	
ДЫХАНИЕ КАК ЗЕРКАЛО ДЕТСТВА: ФИЛОСОФСКИЙ ВЗГЛЯД НА РЕЦИДИВИРУЮЩИЕ РЕСПИРАТОРНЫЕ ИНФЕКЦИИ.....	102-105
<i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i>	
YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI.....	106-110
<i>Taylyakova Feruzaxon Sultanovna</i>	
O'ZBEKISTONDA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	111-116
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i>	
TEXNIK TARAQQIYOT AXLOQIY-STRATEGIK RESURS SIFATIDA.....	117-120
<i>Yarashov Sarvar Norqul o'g'li</i>	
SHAXSNING SHAKLLANISHIGA AXLOQIY IDEALLAR VA JAMIYATDA MAVJUD QADRIYATLARNING TA'SIRI.....	121-125
<i>Shokirov Toxirjon, Maxmudov Shoxrux</i>	
ZARDUSHTIYLIK DININING VUJUDGA KELISHI VA UNDA MADANIYAT VA SAN'AT FALSAFASI.....	126-130
<i>Ахмедова Дилбар, Шавкатова Ширин</i>	
ПЕРВЫЕ ШАГИ В МИКРОМИРЕ: ФИЛОСОФСКИЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ДИСБИОЗЕ И АЛЛЕРГИИ У МЛАДЕНЦЕВ.....	131-135
<i>Kurbanbaeva Ulbosin Jumag'alevna</i>	
EKOLOGIK TARBIYANING GUMANISTIK MOHIYATI.....	136-139
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Muqumova Dilafruz</i>	
IRFONIY SAYRU SULUKNING JA'FAR MUHAMMAD TERMIZIY SHE'RIYATIDAGI MODERNISTIK TASVIRI VA TALQINI.....	140-147
<i>Xo'jamqulov Anvar, Tog'ayeva Shoxnoza</i>	
TAXAYYUL OLAMI TAHILLARI.....	148-159
<i>Murodova Iroda, Khamidov Tokhirjon</i>	
ANALYSIS OF THE LINGUOCOGNITIVE ASPECT OF THE SEMANTICS OF METAPHORICAL INNOVATIONS .....	160-163
<i>Mamatova Feruza Maxammadovna</i>	
FENOMENOLOGIYA, FENOMEN VA ULARNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI .....	164-168
<i>Burxonova Gulmira Olimjon qizi</i>	
TURLI TIZIMLI TILLARDA SOTSIOMADANIY BIRLIKLER SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TASNIFI.....	169-172
<i>Berdiqulova Shaxnoza, Ruzmatova Gulnara</i>	
BOG'LOVCHILAR VA TINISH BELGILARINING PRAGMATIK KUCHI: O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA .....	173-177
<i>Musurmonova Barchinoy Hasan qizi</i>	
FORS MATNSHUNOSLIGI TARAQQIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI.....	178-182

<i>Яркулова Фотима Усмановна</i>	
ОДНОРОДНЫЕ ЧЛЕНЫ ПРЕДЛОЖЕНИЙ .....	183-186
<i>Jo'raqulova Rayhon Xolboyevna</i>	
О'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LEKSIK BIRLIKLER OBRAZ VA RAMZLARNI YUZAGA KELTIRUVCHI VOSITALAR.....	187-190
<i>Musoeva Hayitgul Urokovna</i>	
THE LINGUO-STYLISTIC ANALYSIS OF THE WORD "HEART" IN ENGLISH LANGUAGE BASED ON THE NOVEL "PRIDE AND PREJUDICE" .....	191-195
<i>Yuldasheva Kamola</i>	
SINXRON TARJIMA JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN PSIXOFIZIOLOGIK STRATEGIYALAR.....	196-202
<i>Matkarimova Malika Oybek qizi</i>	
HOW TO TEACH ENGLISH USING SIMPLE SCIENCE EXPERIMENTS.....	203-206
Kamola Hatamova	
HUJJATCHILIK TARAQQIYOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	207-210

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Uralov Sharof Urazaliyevich</i>	
PROBATSIYA INSPEKTORLARIGA MA'MURIY BAYONNOMA TUZISH VAKOLATINI BERISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI .....	211-216
<i>Mamatmurodov Farrux</i>	
METHODS OF RESOLVING DISPUTES ARISING FROM ISLAMIC FINANCE SERVICES. INTERNATIONAL EXPERIENCE .....	217-222
<i>Муталипова Лола Фархадовна</i>	
СМАРТ-КОНТРАКТЫ И БЛОКЧЕЙН: ВЫЗОВЫ ДЛЯ ДОГОВОРНОГО ПРАВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	223-234
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i>	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СЕКСУАЛЬНОГО НАСИЛИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ .	235-241
<i>Abdullayeva Parvina Baxrilloyevna</i>	
RAQAMLI PLATFORMALARDAGI BANDLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH .....	242-246

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i>	
RAQAMI IQTISODIYOT SHAROITIDA QORAQALPOQ XALQ AN'ANALARIDAGI MAVJUD PEDAGOGIK USULLAR TRANSFORMATSIYASI.....	247-252
<i>Namozova Dilorom Tursunovna</i>	
MUSIQA TA'LIMIDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI .....	253-261
<i>Давыдова Руфина Артуровна</i>	
РОЛЬ ГУМАННОЙ ПЕДАГОГИКИ В ПРЕОДОЛЕНИИ АГРЕССИИ И ОТЧУЖДЕНИЯ СРЕДИ ШКОЛЬНИКОВ .....	262-266
<i>Gaziev Baxromjon Valievich</i>	
OT SPORTIDA MALAKALI CHAVANDOZLARNI TAYYORLASH MUAMMOLARI .....	267-273

<i>Toshtemirova Mohichehra G'olibjon qizi</i>	
DIZAYN TA'LIMINING XALQARO TAJRIBASI:	
O'QUV DASTURLARI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI.....	274-279
<i>Rakhmonova Dilnura Saidovna</i>	
TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARING	
KREATIV FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI:	
AMALIYOT VA TAJRIBA.....	280-286
<i>Yakubova Barno Baxtiyorovna</i>	
MUSTAQIL VA IJODIY ISHLASH FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA	
QARATILGAN MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH.....	287-290
<i>Rixsiboyev Behzod Alisherovich</i>	
IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MADANIY PLYURALIZMNING O'RNI .....	291-295
<i>Islamova Moxichexra Bekmurzayevna</i>	
TALABLARNI TANQIDIY FIKRLASHGA UNDOVCHI O'QITUVCHI STRATEGIYALARI .....	296-301

**12.00.00 - YURIDIK FANLAR - LAW**

**Received:** 2 June 2025

**Accepted:** 15 June 2025

**Published:** 30 June 2025

*Article / Original Paper*

**LEGAL BASIS AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF GRANTING  
THE AUTHORITY TO DRAW UP ADMINISTRATIVE REPORTS TO  
PROBATION INSPECTORS**

**Uralov Sharof Urazalievich**

Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

Head of the Probation Department of the Department of Public Security

**Abstract.** This article discusses the need to grant probation inspectors the authority to draw up administrative reports, its legal basis, and theoretical and practical aspects related to its introduction. It considers increasing the efficiency of probation inspectors' services by granting probation inspectors the authority to draw up administrative reports as an important tool in preventing the recurrence of crime. The article analyzes the need to empower probation inspectors to draw up administrative reports.

**Keywords:** probation, administrative report, legal reform, execution of punishment, crime prevention.

**PROBATSIYA INSPEKTORLARIKA MA'MURIY BAYONNOMA TUZISH  
VAKOLATINI BERISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI**

**Uralov Sharof Urazaliyevich**

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Jamoat xavfsizligi departamenti probatsiya boshqarmasi boshlig'i

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada probatsiya inspektorlariga ma'muriy bayonnomaga tuzish vakolatini berish zarurati, uning huquqiy asoslari hamda joriy etilishi bilan bog'liq nazariy va amaliy jihatlar yoritiladi. Probatsiya inspektorlariga ma'muriy bayonnomaga tuzish vakolatini berish orqali probatsiya inspektor xizmatining samaradorligini oshirish, jinoyatchilikni qayta sodir etilishining oldini olishda muhim vosita sifatida ko'rib chiqadi. Maqolada probatsiya inspektorlariga ma'muriy bayonnomaga tuzish vakolatini berish zarurati tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar.** probatsiya, ma'muriy bayonnomaga, huquqiy islohot, jazo ijrosi, jinoyatchilikning oldini olish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI5Y2025N37>

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasida jinoyatchilikning oldini olish, sudlangan shaxslarni ijtimoiy foydali mehnatga jalgan etish, ularning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash borasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Probatsiya xizmati muhim o'rinni egallaydi. Mazkur xizmatga jinoyat sodir etgan shaxslar ustidan nazoratni amalga oshirish, ularning tuzalishiga ko'maklashish vazifalari yuklatilgan. Shu bilan birga, amaliyotda probatsiya inspektorlarining vakolatlari cheklangani sababli nazoratdagi shaxslar tomonidan sodir etilayotgan ma'muriy huquqbazarliklarga o'z vaqtida ta'sir choralarini qo'llashda muammolar yuzaga kelmoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbazarliklarning oldini olish va shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiyalash tizimini takomillashtirish borasida tub islohotlar olib borilmoqda. Bu borada muhim institutsional

mexanizmlardan biri sifatida Probatsiya xizmati faoliyat yuritmoqda. Ushbu xizmat jinoyat sodir etgani uchun sudlangan, biroq jazoni ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'limgan shakllarda o'tayotgan shaxslarni nazorat qilish, ularni ijtimoiy foydali mehnatga jalg' etish, jinoyatchilikni qayta sodir etilishining oldini olish vazifalarini bajaradi.

Biroq amaldagi qonunchilikda Probatsiya inspektorlarining vakolatlari cheklangan bo'lib, ular ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan nazorat ostidagi shaxslarga nisbatan bevosita chora ko'rish, jumladan, bayonnomma tuzish huquqiga ega emas. Mazkur maqolada ayni shu vakolatni joriy etish zarurati va uning huquqiy hamda amaliy asoslari tahlil qilinadi. Keyingi yillarda ichki ishlar organlari tizimida ma'muriy nazorat va probatsiya nazorati ostidagi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ma'naviy va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, hozirgi kunda respublikamizda probatsiya nazorati ostidagi shaxslar orasida olib borilayotgan profilaktik chora-tadbirlarga qaramasdan nazorat ostidagi shaxslar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishi holatlari ortib borayotganligi bu yo'nalishdagi huquqiy ta'sir choralarini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda.

Shuningdek, sud tomonidan belgilangan taqiq (cheklov) va majburiyatlarni bajarmagan nazorat ostidagi shaxslar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar holatlari bo'yicha tez va ta'sirchan choralar ko'rilihini ta'minlash borasida ichki ishlar organlari probatsiya bo'linmalari xodimlariga qo'shimcha vakolatlar berish zarurati yuzaga keldi. Ushbu Qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga nazorat ostidagi shaxslarga nisbatan ta'sirchan choralar ko'rilihini ta'minlash hamda ichki ishlar organlari probatsiya bo'linmalari xodimlarining vakolatlarini kengaytirishni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Ushbu qonun kelgusida nazorat ostidagi shaxslar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish va ularga nisbatan qo'llanilgan ta'sir choralarining natijadorligi oshishiga olib keladi.

Probatsiya xizmatining huquqiy maqomi shundaki, Probatsiya xizmati O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tarkibidagi alohida bo'lim sifatida faoliyat yuritadi. Uning asosiy vazifalari "Jinoyat-ijro kodeksi", "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonun hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi. Probatsiya inspektorlari nazoratdagи shaxslarning yashash va mehnat faoliyatini monitoring qilib boradi, profilaktik suhabatlar o'tkazadi, ularning ijtimoiy muhitga moslashuvini ta'minlash uchun chora-tadbirlar ko'radi.

Ma'muriy bayonnomma tuzish vakolatining dolzarbli. Amaliyotda kuzatilayotgan holatlarga ko'ra, nazorat ostidagi shaxslar tomonidan spirtli ichimlik iste'mol qilish, jamoat joyida tartibsizlik, mehnat majburiyatlarini bajarmaslik kabi ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etilishi keng tarqalgan. Biroq Probatsiya inspektori ushbu huquqbuzarlikni aniqlagan taqdirda ham, bayonnomma rasmiylashtirish huquqiga ega emas edi. Bu esa, o'z navbatida, huquqbuzar shaxsga o'z vaqtida ta'sir choralarini qo'llash imkoniyatini cheklaydi.

Mazkur vakolatni inspektorlarga berish amaliyoti joriy etish jarayonida probatsiya nazorati ostida bo'lgan shaxslarning tartib-intizomini mustahkamlashga hamda jinoyatga olib keluvchi omillarni erta aniqlash va bartaraf etish bilan birga boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar yukini kamaytirishga xizmat qiladi.

Huquqiy asoslar va qonunchilikka taklif etilayotgan o'zgartishlar. Probatsiya inspektorlariga ma'muriy bayonnomma tuzish vakolatini berish uchun quyidagi qonunchilik asoslari shakllantirildi:

1) "O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi"ning [4] 248-moddasi 4-qismiga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish orqali ichki ishlar organlarining 185<sup>2</sup> va 187-moddalari bo'yicha probatsiya nazoratidagi shaxslarga nisbatan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi bayonnomma tuzish vakolatini probatsiya xizmatining katta inspektori va inspektorlariga berish normasi kiritildi;

2) Probatsiya inspektorlari uchun huquqiy bilimlar va hujjatlarni rasmiylashtirish malakasini oshirishga qaratilgan maxsus o'quv kurslari tashkil etildi.

3) "O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi"ga tegishli o'zgartishlar kiritib, Probatsiya xodimlariga O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 223-moddasi bo'yicha huquqbazarliklar yuzasidan bayonnomma tuzish hamda qaror qabul qilish vakolatini berish huquqiga ega organlar qatoriga kiritish;

4) "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuni va "Probatsiya to'g'risida"gi normativ hujjatlarga qo'shimchalar kiritish;

Probatsiya xizmatining katta inspektori va inspektorlariga ichki ishlar organlarining 185-2 va 187-moddalari bo'yicha probatsiya nazoratidagi shaxslarga nisbatan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi bayonnomani tuzish vakolati berildi.

O'zgarishlarning maqsadi: Avval probatsiya xodimlari tomonidan huquqbazarliklar aniqlanganda, ularni hududiy tayanch punkti profilaktika inspektorining oldiga olib borib, bayonnomma rasmiylashtirish talab etilardi. Bu jarayon probatsiya xodimining ish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ortiqcha vaqt sarflanishiga sabab bo'lardi. Yangi o'zgartirishlar bilan, huquqbazarlik aniqlangan joyning o'zida probatsiya xizmatining katta inspektori va inspektorlari tomonidan bayonnomma tuzish imkoniyati yaratilmoqda. Bu esa ish jarayonini soddalashtirib, samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Probatsiya inspektorlari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida o'z faoliyatini yuritadi. Probatsiya inspektorlarining quyidagi vakolatlari mavjud: Mahkumga axloq tuzatish ishlari jazosini o'tash tartibini tushuntirish. Uning ish joyi bilan muntazam aloqada bo'lib turish, oylik ish haqidan davlat foydasiga to'lanadigan chegirmalarni nazorat qilish. Belgilangan tartibda hisobotlarini yuritish va taftish o'tkazish. Majburiyatlarga rioya etilishini tekshirib borish. Mahkumni jamoat ishlariga jalb qilish uchun tegishli tashkilotlar bilan hamkorlik qilish. Ish grafigiga rioya etilishini nazorat qilish. Hisobotlarni rasmiylashtirish, bajarmagan hollarda javobgarlik choralarini ko'rish (sudga taqdim qilish). Mahkumning sud tomonidan ta'qiqlangan ma'lum bir faoliyatni amalgalashmasligini nazorat qilish (masalan, avtotransport boshqarmaslik, pedagogik faoliyat, boshqaruv lavozimlari). Huquqbazarlik aniqlansa, tegishli tartibda hujjat to'plab sudga yuborish. Shartli hukm qilingan shaxs ustidan nazorat o'rnatish. Sud tomonidan belgilab berilgan shartlarga rioya qilinishini tekshirish (masalan, yashash joyini tark etmaslik, ish bilan band bo'lish). Ma'lumotnomma va hisobotlarni yuritish. Shartlarni buzganda tegishli tartibda hujjatlashtirilib sudga yuborish (shartli hukmni bekor qilish bo'yicha). Probatsiya inspektorining vakolatlari jinoyat sodir etgan shaxslarni ijtimoiy muhitda tuzatishga, ularni takroriy jinoyatlar sodir qilmaslikdan saqlashga va ularning huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan. Jinoyat kodeksining 45, 46, 48, 73 va 74-moddalari ana shunday maqsadlarda

probatsiya institutining huquqiy asosini mustahkamlaydi. Bu esa jinoyatga qarshi kurashning ijtimoiy-gumanistik yondashuvini ifodalaydi.

Dunyoning ko'plab davlatlarida, xususan AQSh, Rossiya Federatsiya, Belorus Respublikasi, Niderlandiya Qirolligi va Polshada probatsiya xizmati xodimlari o'z faoliyati doirasida ma'muriy bayonnomalarni tuzish, shuningdek, sudga tavsiyanomalar kiritish huquqiga ega. Masalan, AQShda parole officerlar nazoratdagi shaxs tomonidan shartlar buzilgan taqdirda darhol bayonnomaga tuzib, tegishli choralar ko'radi. Bu esa ularning profilaktik ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro hujjatlar va chet el mamlakatlari qonun hujjatlari Belorus Respublikasining 09.07.1999 yildagi Jinoyat kodeksining 51-moddasida, muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazo asosiy jazoga qo'shimcha jazo sifatida tayinlangan bo'lib (jamoat ishlariga jalb qilingan va jarima qo'llanilgan holatlar bundan mustasno), jazoni o'tayotgan mahkum muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tashdan bo'yin tovlagan bo'lsa, uning harakatlari asosiy jazoni o'tashdan bo'yin tovlash deb baxolanib, uning asosiy jazosi boshqa bir og'irroq jazo chorasiga almashtirilishi belgilangan.

Xususan, muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ozodlikni cheklash jazosiga almashtirilib, ozodlikni cheklash jazosining bir kuni muayyan huquqdan mahrum qilish jazosining bir kuni xisobiga tenglashtirgan holda jazo belgilanib, umumiy jazo muddati 5 yildan oshmasligi ko'rsatilgan.

Gruziya Respublikasining 19.06.2007 yildagi "Ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'limgan jazolarni va Probatsiyani ijro etish tartibi haqida"gi Qonunning 4-bobi ("Shartli hukm va muddatidan ilgari sharli ozod qilingan shaxslarni probatsiya byurosiga belgilangan muddatlarda kelib-ketish tartibini buzgan shaxslarga nisbatan jarima belgilash tartibi")ning 12-moddasi 5-band: Shartli hukm qilingan hamda muddatidan ilgari sharli ozod qilingan shaxslar belgilangan muddatlarda probatsiya byurosiga ro'yxatdan o'tish uchun kelmagan hollarda 1-martasiga 100 lira, 2-martasiga 200 lira va 3-martasiga 300 lira miqdorida jarima to'lashi uchun probatsiya inspektori tomonidan bayonnomaga rasmiylashtiriladi. Probatsiya nazoratidagi shaxsning 3-martadan ortiq kelmaganlik holati aniqlansa, sudga jazoni og'irroq turiga almashtirish yuzasidan probatsiya inspektori tomonidan taqdimnomaga kiritiladi.

Germaniya Federativ Respublikasining 15.05.1871-yildagi Jinoyat kodeksining 145-s moddasi: Jinoyat ishlari bo'yicha sud tomonidan taqilangan kasb, hunar yoki sanoat bilan shug'ullangan shaxs -bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi yoki jarima jazosi tayinlanadi. Fransiya Respublikasining 22.07.1992-yildagi Jinoyat kodeksining 434.40-moddasi: Ushbu kodeksning 131.27 dan 131.29- moddalarida nazarda tutilgan har qanday kasbiy yoki ijtimoiy faoliyatni amalga oshirishni taqiqlash jazosi belgilangan bo'lsa, ushbu taqiqga rioya qilmaslik – ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki ikki yuz ming frank jarima jazosi tayinlanadi.

Niderlandiya Qirolligining 03.03.1881-yildagi Jinoyat kodeksining 195-moddasi: Agarda fuqaro sud qarori bilan muayyan huquqdan mahrum qilinganligini bila turib, ushbu taqiqni buzgan holda – olti oydan oshiq bo'limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki uchinchi toifali jarima jazosi tayinlanadi. Ushbu kodeksning 23-moddasi 4-qismida uchinchi toifa jarimasi 5000 dan 10000 gulden gacha ko'rsatilgan.

Rossiya Federatsiyasining 08.01.1997-yildagi Jazoni ijro etish kodeksining 38-moddasi: Muayyan huquqdan mahrum qilish to'g'risidagi sud hukmini, qarorini yoki qonuniy kuchga kirgan boshqa sud hujjatini qasddan bajarmagan davlat organlari, davlat

xizmatchilari, munitsipal xizmatchilar, davlat yoki munitsipal muassasalar, tijorat yoki boshqa tashkilotlarning xodimlar, shuningdek muayyan huquqdan maxrum qilish jazosi hukm talablarini buzgan mahkumlar Rossiya Federatsiyasi qonunlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi. Rossiya Federatsiyasining amaldagi Jinoyat kodeksida muayyan huquqdan mahrum qilish jazosidan bo'yin tovlaganlik uchun ta'sir chorasi nazarda tutilmagan.

Qozog'iston Respublikasining 05.07.2014-yildagi Jazoni ijro etish kodeksining 72-moddasi 5-qismi 4-bandи (Probatsiya xizmati tomonidan muayyan lavozimni egallash yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidан mahrum qilish tarzidagi jazoni ijro etish tartibi): Jazoni o'tashdan bo'yin tovlab, qochib ketgan mahkumlarga nisbatan dastlabki qidiruv tadbirlarini o'tkazadi va ularga nisbatan qidiruv e'lon qilish to'g'risida sudga taqdimnomad kiritadi. Qozog'iston Respublikasining amaldagi qonunchilikida muayyan huquqdan mahrum qilish jazosidan bo'yin tovlaganlik uchun faqat qidiruv e'lon qilishi ko'rsatilgan.

Tojikiston Respublikasining 06.08.2001-yildagi Jazoni ijro etish kodeksining 38-moddasi: Muayyan lavozimda ishlamaslik yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanmaslik bilan bog'liq sud hukmini mansabdor shaxs tomonidan ijro etmaganligi taqdirda Tojikiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi. Tojikiston Respublikasi amaldagi qonunchilikida muayyan huquqdan mahrum qilish jazosidan bo'yin tovlaganlik uchun ta'sir chorasi nazarda tutilmagan.

Kutilayotgan natijalar sifatida quydagilarni keltirishimiz mumkin.

Probatsiya inspektorlariga ma'muriy bayonnomma tuzish va qaror qabul qilish vakolatini berish orqali:

- nazoratdagi shaxslar tomonidan huquqbazarliklar kamayadi;
- sudlovgacha bo'lgan profilaktika samaradorligi oshadi;
- probatsiya xizmati faoliyatining institutsional maqomi kuchayadi;
- jinoyatchilikning qayta sodir etilishi kamayadi;
- davlat organlari o'rtasida funksional bo'linish va vakolatlar muvozanati ta'minlanadi;
- probatsiya inspektorlarining vaqtি tejaladi;

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqorida keltirilgan tahlillardan kelib chiqib, probatsiya inspektorlariga ma'muriy bayonnomma tuzish vakolatini berish – bu zarurat, amaliyot va xalqaro tajriba nuqtai nazaridan o'zini oqlagan taklifdir. Bu taklif qonunchilik asosida rasmiylashtirilib, O'zbekistonda jinoyatchilikni kamaytirish va jamoat xavfsizligini ta'minlashda muhim qadam bo'ladi. Shu sababli, qonunchilikka tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya. - Toshkent. 2023. – 49 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'insifatida ishslashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi 209-son farmoni.
3. G'aniyev F.T. O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy preventiv mexanizmi //Results of National Scientific Research International Journal. -2024. – T. 3. – №. – C. 84-90. 8. Ganiyev F., Ganiyeva G. O'G'IRL.
4. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.
5. O'zbekiston Respublikasi 2014-yil 14-may "Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonun.

6. O'zbekiston Respublikasi IIVning 2017-yil 12-iyuldag'i "Ichki Ishlar organlarining Huquqbazarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 151-son buyruq.
7. Profilaktika inspektori ma'muriy ish yuritish faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari. Jamiyat va innovatsiyalar – Jalilov N.O.
8. Akbarova B.S. Huquqbazarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi institutining nazariyasoslari. Jamiyat va innovatsiyalar.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Nº S/5 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb  
muammolari” elektron jurnali 2020-yil  
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro’yxatiga olingan.**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog’lanish uchun telefon:**  
(99) 602-09-84 (telegram).